

**HADYA SHARTNOMASI**

*Sultonov Muxriddin Qodirali o'g'li*

*Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti 2-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbari: Allayorova Muattar*

*Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti Jinoyat huquqi va fuqarolik  
procsessi kafedrasi o'qituvchisi*

**Annatsiya:** *Ushbu maqola hadya shartnomasi tushunchasi, uning turlari, shakli hamda mohiyati, shuningdek, hadya shartnomasini tuzishning tartibi haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Hadya, hadyani bekor qilish, shakli, cheklash, shartnoma, bajarishdan bosh tortish, bekor qilish asoslari, oqibatlari, va'da, hayir-ehson.*

**Hadya** - bir shaxsning o'z mulkini ikkinchi shaxsga bepul berishi haqidagi shartnoma O'zbekiston Respublikasi qonun bo'yicha biron bir shaxsga ashyoni yoki mulk huquqini tekinga berishni yoki biron-bir shaxsni mulkiy majburiyatdan ozod etishni va'da qilish (hadya etishni va'da qilish), agar va'da tegishli shaklda berilgan bo'lsa va kelajakda aniq shaxsga ashyo yoki mulkiy huquqni tekinga berish yoki uni mulkiy majburiyatdan ozod qilish maqsadi aniq ko'rinib turgan bo'lsa, hadya shartnomasi deb tan olinadi. Ashyo, mulk huquqi yoki mulkiy majburiyatdan ozod qilish shaklida hadya narsasini aniq ko'rsatmasdan o'zining mol-mulkini yoki mol-mulkning bir qismini hadya etishni va'da qilish o'z-o'zidan haqiqiy emas. Hadyani hadya oluvchiga hadya qiluvchining vafotidan keyin topshirishni nazarda tutuvchi shartnoma ham haqiqiy bo'lmaydi.

Hadya qilish, ayni paytda hadyani hadya oluvchiga topshirish (oddiy sovg'a tarzida) og'zaki yoki huquqni belgilaydigan hujjatlarni taqdim etish yo'li bilan yozma shaklda amalga oshiriladi. Ko'chmas mulk va avtomoto-transport

vositalarini hadya qilish shartnomasi notarial tasdiqlanishi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

Umumfoydali maqsadlarda qilingan hadya xayr-ehson hisoblanadi. Xayr-ehson fuqarolarga, davolash, tarbiya, ijtimoiy himoya, xayriya, ilmiy va o'quv muassasalariga, fondlarga, muzeylar va boshqa madaniyat maskanlariga, jamoat birlashmalari va boshqa fuqarolik huquqi subyektlariga qilinishi mumkin. Xayr-ehson qiluvchi mol-mulkni fuqaroga xayr-ehson qilganida bu mol-mulkdan ma'lum bir maqsadda foydalanishni shart qilib qo'yishi lozim. Hadya bilan bog'liq huquqiy me'yorlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksida belgilangan bular (502-511) moddalarni o'z ichiga oladi.

Biron-bir shaxsga ashyoni yoki mulk huquqini tekinga berishni yoki biron-bir shaxsni mulkiy majburiyatdan ozod etishni va'da qilish (hadya etishni va'da qilish), agar va'da tegishli shaklda berilgan bo'lsa va kelajakda aniq shaxsga ashyo yoki mulkiy huquqni tekinga berish yoki uni mulkiy majburiyatdan ozod qilish maqsadi aniq ko'rinib turgan bo'lsa, hadya shartnomasi deb tan olinadi va bu haqda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik doeksida alohida to'htalib o'tilgan

Ashyo, mulk huquqi yoki mulkiy majburiyatdan ozod qilish shaklida hadya narsasini aniq ko'rsatmasdan o'zining mol-mulkini yoki mol-mulkning bir qismini hadya etishni va'da qilish o'z-o'zidan haqiqiy emas deb belgilanadi.

Hadyani hadya oluvchiga hadya qiluvchining vafotidan keyin topshirishni nazarda tutuvchi shartnoma o'z-o'zidan haqiqiy emas. Bunday hadyaga nisbatan fuqarolik kodeksining vorislik to'g'risidagi bobi qo'llaniladi.

Shuni nazarda tutish lozimki Hadya qilish, ayni paytda hadyani hadya oluvchiga topshirish og'zaki amalga oshirilishi mumkin qonunimizda nazarda tutilgan ba'zi bir holatlar bundan mustasno hisoblanadi.

Hadyani topshirish uni taqdim qilish, ramziy topshirish (kalit va hokazolarni taqdim qilish) yoki huquqni belgilaydigan hujjatlarni taqdim etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ko'char mulkni hadya qilish shartnomasi:

hadya qiluvchi yuridik shaxs bo'lganida;

fuqarolar o'rtasida bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan ortiq summaga shartnoma tuzilayotganda;

shartnomada kelajakda hadya etish va'da qilingan hollarda oddiy yozma shaklda tuzilishi lozim.

Bazi holarda og'zaki tuzilgan hadya shartnomasi o'z-o'zidan haqiqiy emas.

Ko'chmas mulkni hadya qilish shartnomasi notarial tasdiqlanishi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

Qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim bo'lgan avtomototransport vositalarini hadya qilish shartnomasi notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Hadya oluvchi hadya qiluvchining, uning oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlarining hayoti yoki sog'lig'iga qarshi ataylab jinoyat sodir qilgan hollarda hadyani bekor qilishga sud tartibida yo'l qo'yiladi.

Hadya oluvchi hadya qiluvchini qasddan o'ldirgan taqdirda hadya qiluvchining vorislari sudda hadyani bekor qilishni talab etish huquqiga ega.

Agar hadya oluvchining hadya qiluvchi uchun katta nomulkiy qiymatga ega bo'lgan hadya buyumga nisbatan muomalasi uning butunlay yo'q bo'lib ketishi xavfini hadya qiluvchi hadya bekor etilishini sud tartibida talab qilishga haqli hisoblanadilar

Hadya shartnomasini bajarishdan bosh tortish va hadyani bekor qilish to'g'risidagi qoidalar og'zaki tuzilgan hadya shartnomalariga nisbatan qo'llanmaydi.

Hadya qilingan ashyodagi kamchiliklar tufayli hadya oluvchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, agar bu kamchiliklar ashyo hadya oluvchiga topshirilgunga qadar paydo bo'lgani aniq ko'rinib turgan kamchiliklar

jumlasiga kirmasligi va hadya qiluvchi bu haqda bilgan bo'lsa-da, hadya oluvchini ogohlantirmaganligi isbot qilingan bo'lsa, ushbu fuqarolik kodeksining 57-bobida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq hadya qiluvchi tomonidan qoplanishi lozim deb belgilab o'tilgan.

Agar hadya shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, hadya shartnomasiga muvofiq hadya va'da qilingan hadya oluvchining huquqlari uning merosxo'rlariga (huquqiy vorislariga) o'tmaydi.

Agar hadya shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, hadya shartnomasiga muvofiq hadya berishni va'da qilgan shaxsning majburiyatlari uning merosxo'rlariga (huquqiy vorislariga) o'tadi.

Hadya shartnomasida uning nomi, narsasi va predmeti aniq bo'lishi kerak. Xususan;

- Hadya beruvchi o'ziga tegishli bo'lgan ashyoni shartnoma bo'yicha boshqa kishiga ya'ni hadya oluvchiga o'tkazadi.
- Hadya beruvchi o'zini ashyoga bo'lgan egalik huquqini hadya oluvchiga o'tkazadi.
- Hadya qiluvchi uchinchi shaxslardan ashyoni talab qilishga bo'lgan huquqini hadya oluvchiga o'tkazadi.
- Hadya beruvchi o'zining qarzdori bo'lgan shaxdan qarzni talab qilib olishga bo'lgan huquqini hadya shartnomasi orqali voz kechadi, bunda uchunchi shaxsning huquqlari buzulmasligi kerak.
- Hadya qiluvchi hadya oluvchining boshqa shaxslar ya'ni uchunchi shaxslar oldidagi majburiyatlaridan ozod qilishni maqsad qilib shartnoma tuzishlari mumkin.

Hadya shartnomasi umumiy holda hadyani hadya oluvchiga topshirish yozma tarzda amalga oshirilishi kerak. Og'izaki tuzilgan shrtnoma o'z o'zidan haqiqiy hisoblanmaydi. Hadyani topshirish masalan, kvartirani topshirish

avtomobilni topshirish bo'lishi mumkin. Yoki huquqni guvohlantiruvchi hujjatni taqdim etish yo'li bilam amalga oshiriladi.

Hadya oluvchi o'ziga hadya topshirilguniga qadar hadyani hohlagan vaqtida rad etishi mumkin. Bunday holda hadya shartnomasi bekor qilingan hisoblanadi. Agar hadya shartnomasi yozma shaklda tuzilgan bo'lsa, uni bekor qilish ham yozma shaklda amalga oshirilishi kerak. Shartnoma davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lsa, bekor qilish ham davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak.

Hadya shartnomasini tuzish uchun;

- Shartnomani tasdiqlashda har ikki tomon ya'ni hadya qiluvchi ham hadya oluvchi ham qatnashishi kerak.
- Har ikki tomonning hohish irodasi inobaga olinishi kerak.
- Tomonlardan amaldagi, amal qilish muddati o'tmagan shaxsni tasdiqlovchi hujjati yoki ID kartasi, va doimiy yoki vaqtinchalik yashash joylari haqida ma'lumotlar bo'lishi kerak;
- Hadya qilinayotgan kochmas mulkning kadastr hujjatlari, uy maydoni, qavati, joylashgan manzili, nechi xonadan iborat ekanligi, nechi qavatdan tashkil topganligi, uy daftari haqida to'liq ma'lumotlar;
- Egalik huquqini belgilovchi hujjat, shartnoma yoki guvohnoma va shunga o'xshash hujjatlar;
- Hadya beruvchining turmush o'rtog'ining roziligini bildiruvchi yozma ariza bo'lishi kerak.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, hadya shartnomasining asosiy tushunchasi turli mamlakatlarda o'xshash bo'lib qolsa-da, o'ziga xos qonuniy talablar va amalga oshirish tartib-qoidalari sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Hadyani belgilangan tartibda va qonuniy ravishda o'tkazishni ta'minlash uchun mahalliy qoidalar va madaniy kontekstni tushunish juda muhimdir deb bilaman.